

**O'ZBEK TILI ONOMASTIKASINING SHAKLLANISH
ASOSLARI**

Alimova E'tibor Karomat qizi

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili onomastikasining shakllanish asoslari, ya'ni ismlar tizimining paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Bundan tashqari maqolada onomastik birliklarning semantik va grammatik tuzilishi hamda lug'aviy ma'nolari ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponim, toponim, teonim, gidronim, mifonim.

XX asrda dunyo tilshunosligida yangi ilmiy yo'nalishlar shakllandi va mustaqil sohalar sifatida ajralib chiqdi. Ana shunday muhim sohalardan biri sifatida nomshunoslik (onomastika) alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur sohani XX asrning o'rtalaridan boshlab zamonaviy lingvistik mezonlar asosida tadqiq etishga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Bu davrda onomastik tizimlarni har tomonlama o'rganishga doir ko'plab ilmiy izlanishlar jadal rivojlanib, o'zining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirdi.

Onomastik birliklarni turli lingvistik sathlarda — fonetik, morfologik, semantik va pragmatik nuqtayi nazardan chuqur tadqiq qilish yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, hozirgi davrda onomastik birliklarni zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, matn doirasida onomastik birliklar lingvopoetik, lingvokulturologik, kognitiv-semantik hamda sotsiopragmatik jihatdan tahlil etilmoqda. Ushbu yondashuvlar onomastik birliklarning matndagi funksional yukini, estetik hamda madaniy-ma'naviy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini bermoqda.



O'zbek tilshunosligida onomastik birliklar alohida lug'aviy qatlamni tashkil etishi ularning paydo bo'lishi rivojlanishi va bugungi kundagi taraqqiyoti antroposentrik, sotsiolingvistik, etnolingvistik, nominativ va motivatsion xususiyatlari ham nazariy ham amaliy yo'nalishda tadqiq etilgan. Bu sohani turli yo'nalishda chuqur tadqiq etgan olimlar E. Begmatov, Z.Do'simov, T.Nafasov, M.I.Malgasova, S.Qorayev, N.Xusanov, E.Qilichev, B.O'rinboyev, F.Sattorov, S.Raximov, B.Yo'ldoshev, N.Uluqov, I.Xudoynazarov, S.Bo'riyev va boshqalardir. Xususan, Onomastika sohasida salmoqli ishlari bilan chuqur iz qoldirgan taniqli olim A.E.Begmatov onomastik birliklardan mifonimlarni keng ko'lamli onomastik birliklar ekanligini hamda u mifoantoponim, mifozoonim, mifotoponim, mifoteonim, mifoetnonim, mifogidronim, mifonekronim kabi atoqli otlar tarkibida uchrashini qayd etadi¹.

Mifonim aslida afsonaviy va hayoliy qahramonlar jamlanmasini o'z ichiga oladi. Mifonimlarning teonimika (Onomastikaning Iloh nomlarini o'rganuvchi bo'limi) bilan aloqador jihati bir nom nuqtayi nazaridan birlashadi. Ammo mifonimlarda diniy e'tiqodlar bilan bog'liq afsonaviy, to'qima obrazlarning bo'rttirilganini ko'rishimiz mumkin.

Professorlar T.Nafasov va A.Shermatov o'z maqolalaridan birida o'zbek nomshunosligi tarixi va rivojini uch bosqichga bo'lishgan: 1) ilmiy milliylikkacha bo'lgan bosqich qadimiy davrdan XIX asr oxirigacha; 2) nomshunoslikning, ayniqsa, antroponimiya va toponimikaning fan sifatida shakllanish bosqichi. Ammo bu soha XX asrning boshidan 60-yillarigacha to'la ma'noda onomastika darajasiga ko'tarila olmagan edi; 3) ilmiy yoki onomastika bosqichi. Keyin bosqich haqida quyidagicha fikr bildirilgan: "60-yillar oxirida o'zbek tilida ayrim hududlar misolida so'zlarning alohida toifasi hisoblangan toponimlar va antroponimlar o'rganila boshladi. O'zbek onomastikasi o'zida toponimika,

¹ Бегматов А.Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 48.



antroponimika, geonimika, ktematonimika, zoonimika singari mustaqil sohalarni qamraydi”².

Gidronimlar o'rganish tilshunoslik fanining muhim masalalaridan biri bo'lib kelgan. Jumladan, rus tilshunosligida 1960-1970-yillarda R.A.Agayev, V.F.Barashkov, N.P.Butenko, I.A.Vorebova, E.D.Golovina, A.P.Afanasev, I.G.Dolgachev, L.I.Kalilina, B.A.Baxotin Y.S.Otin, M.V.Labzina kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. (Agayev R.A.DIss 5-b).

1970-1975-yillarda E.M.Murzayev, E.R.Rigdilon, S.U.Umurzaqov, G.E.Bazarova, S.A.Gurulev hamda M.Mamirovlarning turkiy gidronimlarga oid ilmiy maqolalari nashr etildi.

Yirik suvliklar nomini ifodalovchi gidronimlarni lisoniy tadqiq qilish keyinchalik ham davom etdi. Fikrimizni dalili sifatida, D.Isayevning “Issiqko'l, K.F.Gritsenkoning Lena va Aldana, M.A.Xabichevning Kuban, Terek, Chereklarning tadqiqotlarini misol keltirish mumkin³.

E.M.Murzayevning ishlarida esa Volga, Don, Dnepr, Amur kabi yirik daryo nomlarining ma'nosi, nomlanish asosi, motivi, variantlari hamda ular bilan bog'liq tarzda shakllangan toponimlar tahlil qilingan. O'zbekiston gidronimlarni tadqiq qilish hamda geografik nuqtayi nazaridan o'rganish P.Baratov tomonidan amalga oshirilgan.

1960-yillarning oxiri hamda 1970-yillarda toponimikasida ayrim yirik hamda kichik gidronimlar xususida yuzaga keldi. A.Ishayevning Qashqa, T.Nafasovning Norin, H.Sharipovning Itoqar, A.Nabiyevning Toshkent ariqlari, N.Begaliyevning Sirdaryo gidronimlari haqidagi tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Professor B.Yo'ldoshev teonim va teonimiya bilan bog'liq izlanishlarda aniq xulosaga kelinmayotganligi va teonimiya dorasi kengayib borayotganligi haqida so'z yuritisa, M.I.Malgasova teonimiya sohasini keng talqin qiladi hamda

² Нафасов Т., Шерматов А. Из истории развития, формирования узбекской ономастики и ее перспективы // Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С. 59-60.

³ Хабичев М.А. Кубань, Терек, Черек // Вопр. Сопостов. Изуч.яз. народов Карачасао-Черкессии. – Стяраполь, 1978. – С. 98-103.



demonimlik hodisasini teonimik soʻz turkumlari tarkibida semantik guruh sifatida qayd etadi⁴.

Mustaqillik davridan boshlab, oʻzbek tilshunosligida badiiy matnda onomastik birliklar tahliliga bagʻishlangan ishlar samarali va salmoqli oʻrinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, D.Andaniyozovaning “Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi”⁵, N.Moʻminovaning “Temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari”⁶ kabi tadqiqotlarini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda oʻzbek tili badiiy matnlaridagi leksik birliklarning antroposentrik talqini hamda badiiy matnda onomastik birliklarning lingvopoetik, leksik-semantik jihatlari ham umumiy, ham nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Ayniqsa, D.Andaniyozovaning tadqiqoti hozirgi kunda oʻzbek tili onomastikasi bilan shugʻullanayotgan tadqiqotchilar uchun aniq vazifalar qoʻyilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Shunday tadqiqotlardan yana biri B.Tillayevaning “Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy lisoniy tadqiqi”⁷, nomli dissertatsiyasidir. Ishda “Avesto” onomastikasi, uning tarkibi, Xorazm onomastikasiga munosabatni oʻrganishga qaratilgan. Tadqiqotning obyekti “Avesto” tilida uchraydigan atoqli otlar tizimi va uni Xorazm onomastikasi materiallariga qiyoslash tashkil qiladi. Ishda Avesto tili, jumladan, onomastikasining murakkab va munozarali oʻrinlarini tahlil qilishda jahon avestoshunosligida erishilgan yutuqlarga, shuningdek, oʻzbek olimlaridan H.Mallayev, A.Qayumov, F.Abdullayev, M.Is’hoqov, N.Hamidov, Z.Doʻsimov, M.Joʻrayev, T.Mahmudov va boshqalarning ilmiy ishlariga oʻrni bilan murojaat qilingan. Antroponim, toponim, teonim, kosmonim va boshqa birliklar tahlil qilingan. Masalan: antroponimlarga Kay Orash, Kay Xisrav, Kaykovus, Kayapivax, Gushtasp, Jomasp, Farashaushtra Xuvgva kabi ism va

⁴ Мальгасова М.И. Теонимическая лексика в русском языке. (На материале художественной литературы) Автореферат. – С. 28.

⁵ Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик birliklarning lingvopoetikasi. – Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 47 б.

⁶ Мўминов Н. Темурийлар даври антропонимиясининг лексик-семантик хусусиятлари. – Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2021. – 47 б.

⁷ Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида) филология фанлари номзоди диссертация автореферати. – Тошкент, 2006. – 25 б.





laqablar ham tahlil qilingan va izohlangan. Bundan tashqari iloh nomlari teonimlar (Obon-suv tangrisi, Otar//Ozar-olov posboni, Osmon-falak tangrisi, Xurmaz Baxman-olov qo'riqchisi, Arshtod-ma'buda, jahonni tarbiyalovchi tarzida, Kosmonimlar (Moh-oy, Xurshid, Mehr-quyosh, Atares-yulduz, Tishtiriy-yulduz, Xanturing//Hafturang-yulduz va boshqalar). Mifonimlarga esa Ashaxmavha-yovuz odam, Oziy//Oz-dev nomi, Ozi-dahaha-ajdaho, Druj//Druch-dev nomi va boshqa shu kabi birliklarning ma'nolari izohlangan. Ishda "Avesto" onomastikasi asosida Xorazm onomastikasi tizimi o'ziga xos tarzda qiyoslash asosida tadqiq qilingan va o'rganilgan.

R.I.Saydullayevaning "Nizomiddin Shomiyning Zafarnoma asari onomastikasi"⁸, mavzusidagi disertatsiya ishi ham shu mavzu bo'yicha yaratilgan dissertatsiyalardan biri. Disertatsiyada Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asaridagi onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishi, leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan va o'rganilgan. Asarda qo'llanilgan antraponim, toponim, etnonim, teonim va boshqa turdagi onomastik birliklarning ma'nolarini izohlash, nomlanish tarixini o'rganish asosida tavsiflangan. "Zafarnoma" asari matnida qo'llanilgan 1670 ta onomastik birliklar shundan 756 ta antraponim, 847 ta toponim, 63 ta etnonimlar, 1 ta zoonim, 2 ta fitonim, 1 ta kosmonimlar aniqlanib, ularning turkiy (o'zbek), arab, fors tillaridagi lug'aviy ma'nolari, taraqqiyot manbalari, tarixiy-etimologik qatlamlari, leksik-semantik xususiyatlari hamda nomlanish tamoyillari ochib berilgan. "Zafarnoma" asari matnida qo'llanilgan 1670 ta onomastik birliklarni aniqlash orqali tizimlashtirilgan, tartibga solingan asardagi onomastik birliklarning ma'nolari va ularning lisoniy va nolisoniy omillari belgilanishi bilan bog'liq ilmiy xulosalardan "Zafarnoma" asaridagi onomastik birliklarning izohli lug'ati nomli lug'atni nashrga tayyorlashda foydalanilgan. Natijada asardagi atoqli otlarning ma'nolarini leksik-semantik jihatdan aniqlash imkonini bergan. Ishda o'zbek tarixiy onomastikasi va antroponimikasini tadqiq etgan olimlarning fikr mulohazalari ham keltirib

⁸ Saydullayeva R. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari onomastikasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Qarshi, 2023. 53 b.



o'tilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, disertatsiya mavzusi tarixiy mavzu ekanligi unda buyuk bobokalonimiz Amir Temur hayoti hamda yurishlari bilan bog'liq voqealarni o'z ichiga olishi, real antroponimik birliklar majmuidan tashkil topgani bilan ahamiyatlidir.

F.U.Rajabovning “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari”⁹ mavzusidagi tadqiqotini ham tarixiy onomastikaga oid ahamiyatli ish deyish mumkin. Ishda onomastik birliklar o'rgalish tarixi, badiiy asar tadqiqiga oid jahon va o'zbek tilshunosligi olimlarining fikrlari keltirilgan hamda ularga izohlar berilgan. Xususan, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.I.Efimov, B.M.Mixaylov, O.A.Karpenko, A.A.Fomin, V.M.Kalinkin va boshqa olimlarning tilshunoslikdagi xizmatlari onomastik sohadagi ishlari, fikrlari keltirib o'tilgan. O'zbek tilshunosligida badiiy asar tadqiqi bilan ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullangan olimlar L.Abdullayev, S.Ashurboyev, B.Vafoev, A.Rustamov, B.Turdialiyev, M.Yo'ldoshev va boshqalarning ishlariga munosabat bildirilgan. Ishda “Boburnoma” asaridagi onomastik birliklarning ko'lami, leksik-semantik, lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, Bobur she'riyatida 140 ta onomastik birlik borligi, jumladan, ularning 42 tasi antroponim, 40 ta toponim, 20 ta ktemotonim, 8 ta teonim, 5 ta etnonim, 6 ta ideonim, 4 ta mifonim, 2 ta kosmonim, 2 ta bayram nomi va boshqa nomlar tahlil qilingan hamda jadval asosida joylashtirilgan va shular asosida “Bobur asarlari poetonimlarining qisqacha lug'ati” tuzilgan. Bu esa ishning ilmiy ahamiyatini yanada oshirgan. Disertatsiyada onomastik birliklarning etimologiyasi, leksikasi, badiiy estetik xususiyatlari ochib berilgan.

D.T.Ibragimova “Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik birliklar lingvistik xususiyatlari”¹⁰ nomli tadqiqotida chog'ishtirma tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilgan. Ingliz va o'zbek tilidagi antroponimik birliklar tahlil qilingan

⁹ Ражабов Ф. Захириддин Мухаммад Бобур асарларидаги ономастик birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Қарши, 2022. 50 б.

¹⁰ Иброхимова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида антропонимик birliklarning lingvistik xususiyatlari. – Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Термиз, 2022. – 58 б.



hamda o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Masalan, "Aaren" (Aren) ismi erkaklar va ayollarga beriluvchi kamdan-kam uchraydigan ism bo'lib, yahudiy tilidan olingan "Aaron" (Aron) ismining o'zlashtirilgan shakli hisoblanadi. "Flora" lotincha "Flos –gul" so'zidan kelib chiqqan. "Edgar" – qadimgi ingliz tili elementlari "ead-boylik, omad", "gar-nayza" so'zlaridan yasalgan. Ishda o'zbek ismlarining turli xil jihatdan yoritilganligini ko'rish mumkin. Xususan, aniqlik darajasi kamroq ifoda etilgan ammo, tez-tez uchraydigan anaforik aloqa, bu yaqin qarindoshlar ismlarining boshlanishi bir xil bo'lgan ismlarda ko'rish mumkin. "Zafar-Zarif-Zufar, Dilshoda-Dilfuza-Dildora-Dilrabo", "Maryam-Marziya-Marhabo-Marhamat". Ingliz va o'zbek antroponimlarining shaxs nomlarining chog'ishtirma tahlili, leksik semantik o'xshashliklar bilan bira qatorda ushbu ikki til antroponimlarini shakllantirishning morfologik usullarida ham o'xshashlik va farqlar mavjud ekanligi ta'kidlangan. Tadqiq davomida har ikki tilda ham ismlar struktur-grammatik shaklga ko'ra sodda, yasama va qo'shma turlarga ajratilgani hamda ingliz va o'zbek tilidagi antroponimlarning o'ziga xos tarzda yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Sh.N.Rahmatullayev "O'zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi" nomli disertatsiyasida xalq ertaklarida mavjud antroponimlar haqida fikr yuritadi¹¹. Tadqiqotchi o'zbek xalq ertaklarining antroponimikasi, ularning leksik, etnolingvistik, lingvomadaniy, nominatsion-motivatsion, milliy-lisoniy asoslari ochib bergan. Ishda o'zbek xalq ertaklari antroponimlarining dunyo va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, bu boradagi olimlarning fikrlari sharxlangan. Antroponimlarning nominatsion-motivatsion asoslarini semantik jihatdan tasnif qilinar ekan, ertaklarda mavjud antroponimlarda anomastik, totemistik, fetishistik motivli ismlarning mohiyatiga genezisiga alohida to'xtalib o'tadi. Shuningdek, o'zbek xalq ertaklaridagi antroponimlarning morfologik-leksik xususiyatlari atroflicha yoritiladi. Shuni

¹¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Buxoro, 2023. 53 b.



ta'kidlab o'tish lozimki, o'zbek xalq ertaklari onomastikasi ularning badiiy xususiyatlari, bu birliklarning matndagi o'rni va til xususiyatlari hali mukammal o'rganilgan deb bo'lmaydi. Ertaklardagi onomastik birliklar ya'ni antraponim, toponim, gidronim, zoonim va boshqa birliklarni semantik jihatdan o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tili onomastikasi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, xalqning milliy o'zligining ifodasi sifatida shakllangan. Ismlar, joy nomlari va boshqa onomastik birliklar nafaqat tilshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik, etnografiya va sotsiologiya kabi fanlar uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek onomastikasining shakllanishida turkiy ildizlar asosiy o'rinni egallagan bo'lsa-da, boshqa madaniyatlar va tillar ta'siri ham sezilarli bo'lgan. Zamonaviy bosqichda esa yangi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv va madaniy yangilanishlar natijasida onomastik tizimda yangi nomlar va tendensiyalar paydo bo'lmoqda hamda tilga singib ketmoqda. O'zbek onomastikasini chuqur o'rganish til taraqqiyoti va milliy mentalitetni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик birliklarning лингвопоэтикаси. – Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 47 б.
2. Бегматов А.Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 48.
3. Иброхимова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида антропонимик birliklarning лингвистик хусусиятлари. – Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Термиз, 2022. – 58 б.
4. Мальгасова М.И. Теонимическая лексика в русском языке. (На материале художественной литературы) Автореферат. – С. 28.



5. Мўминов Н. Темурийлар даври антропонимиясининг лексик-семантик хусусиятлари. – Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2021. – 47 б.

6. Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто”и ономастикасига қиёслаш асосида) филология фанлари номзоди диссертация автореферати. – Тошкент, 2006. – 25 б.

7. Нафасов Т., Шерматов А. Из истории развития, формирования узбекской ономастики и ее перспективы // Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С. 59-60.

8. Ражабов Ф. Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларидаги ономастик бирликларнинг лексик-семантик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Қарши, 2022. 50 б.

9. Хабичев М.А. Кубань, Терек, Черек // Вопр. Сопостов. Изуч.яз. народов Карачасао-Черкессии. – Стяраполь, 1978. – С. 98-103.

10. Rahmatullayev Sh. O'zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Buxoro, 2023. 53 b.

11. Saydullayeva R. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari onomastikasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Qarshi, 2023. 53 b.